



**NOMODDIY AKTIVLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH  
("ASAKABANK" ATB MISOLIDA)**

**PhD Yarkulova Ma'rifatxon**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi*

*ORCID: 0009-0007-6912-2216*

*[marifat.yarkulova@gmail.com](mailto:marifat.yarkulova@gmail.com)*

**Abdusattarov Nosirjon**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi*

*ORCID: 0009-0000-7879-6836*

*[asakabank92@gmail.com](mailto:asakabank92@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston bank tizimida faoliyat yurituvchi Asakabank ATB misolida nomoddiy aktivlar (NA) auditini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda MHXS 38 "Nomoddiy aktivlar" va IFRS 3 "Biznes birlashmalari" talablariga muvofiq ravishda bank balansida qayd etilgan dasturiy ta'minotlar, internet-banking platformalari, mobil ilovalar, brend qiymati va boshqa intellektual mulk obyektlari tahlil qilindi. Asakabankda NA auditi jarayonida uchraydigan asosiy muammolar – baholashdagi subyektivlik, huquqiy hujjatlar bazasining yetarlicha to'liq emasligi, amortizatsiya siyosatidagi tafovutlar – aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalarga asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, baholash metodologiyasini standartlashtirish, raqamli texnologiyalarni audit jarayoniga integratsiya qilish, auditorlar malakasini oshirish va intellektual mulk huquqlarini mustahkamlash kabi chora-tadbirlar taklif etildi. Tadqiqot natijalari Asakabank ATBda nomoddiy aktivlar auditining shaffofligini oshirish hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** nomoddiy aktivlar, MHXS 38, IFRS 3, Asakabank JSCB, audit, buxgalteriya hisobi, intellektual mulk, brend qiymati, dasturiy ta'minot, baholash metodologiyasi.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АУДИТА НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ  
(НА ПРИМЕРЕ АКБ «АСАКАБАНК»)**

**PhD Яркулова Марифатхон**

*Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан*

**Абдусаттаров Носиржон**

*Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования аудита нематериальных активов (НМА) на примере АКБ «Асакабанк», работающего в банковской системе Узбекистана. В ходе исследования был проанализирован программный продукт, платформы интернет-банкинга, мобильные приложения, стоимость бренда и другие объекты интеллектуальной собственности, учитываемые на балансе банка в соответствии с требованиями МСФО (IFRS) 38 «Нематериальные активы» и МСФО (IFRS) 3 «Объединение бизнеса». Были выявлены основные проблемы, возникающие при аудите НМА в АКБ «Асакабанк»: субъективность оценки, неполнота

нормативно-правовой базы, расхождения в политике начисления амортизации, а также разработаны предложения и рекомендации по их устранению, основанные на передовой международной практике. В частности, были предложены такие меры, как стандартизация методологии оценки, интеграция цифровых технологий в процесс аудита, повышение квалификации аудиторов и укрепление прав интеллектуальной собственности. Результаты исследования будут способствовать повышению прозрачности аудита нематериальных активов АКБ «Асакабанк» и обеспечению достоверности финансовой отчетности.

**Ключевые слова:** нематериальные активы, МСФО (IFRS) 38, МСФО (IFRS) 3, АКБ «Асакабанк», аудит, бухгалтерский учет, интеллектуальная собственность, стоимость бренда, программное обеспечение, методология оценки.

### IMPROVING THE AUDIT OF INTANGIBLE ASSETS (ON THE EXAMPLE OF JSCB "ASAKABANK")

*PhD Yarkulova Ma'rifatkhon*

*Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan*

**Abdusattarov Nosirjon**

*Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan*

**Abstract.** This article discusses the issues of improving the audit of intangible assets (IA) using the example of Asakabank JSCB operating in the banking system of Uzbekistan. The study analyzed software, internet banking platforms, mobile applications, brand value and other intellectual property objects recorded in the bank's balance sheet in accordance with the requirements of IFRS 38 "Intangible Assets" and IFRS 3 "Business Combinations". The main problems encountered in the process of auditing IIA at Asakabank - subjectivity in valuation, insufficient completeness of the legal documents base, discrepancies in depreciation policies - were identified, and proposals and recommendations based on advanced international practices were developed to eliminate them. In particular, measures such as standardizing the valuation methodology, integrating digital technologies into the audit process, improving the skills of auditors and strengthening intellectual property rights were proposed. The results of the study will serve to increase the transparency of the audit of intangible assets at Asakabank JSCB and ensure the reliability of financial statements.

**Keywords:** intangible assets, IFRS 38, IFRS 3, Asakabank JSC, audit, accounting, intellectual property, brand value, software, valuation methodology.

#### **Kirish.**

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona va moliya institutlari qiymatining katta qismini moddiy bo'lmagan resurslar – ya'ni nomoddiy aktivlar (NA) tashkil etmoqda. Xususan, tijorat banklari uchun dasturiy ta'minotlar, mobil ilovalar, internet-banking platformalari, brend qiymati va intellektual mulk obyektlari bank xizmatlari sifatini oshirish hamda mijozlar bazasini kengaytirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Shunday resurslar qiymatini to'g'ri hisobga olish va ularning haqiqiylikini auditorlik tekshiruvlari orqali tasdiqlash moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi, shaffofligi va xalqaro investorlar uchun jozibadorligini ta'minlaydi. O'zbekiston bank tizimida yirik o'rin egallagan Asakabank ATB so'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirib, elektron bank xizmatlari, mobil banking tizimlari, onlayn to'lov platformalari va boshqa innovatsion loyihalarga sezilarli investitsiyalar yo'naltirmoqda. Bunday jarayon, tabiiyki, bank balansida nomoddiy aktivlar salmog'ining ortishiga olib keladi. Shu bilan birga, NA auditini to'g'ri va zamonaviy metodologiya asosida tashkil etish bank faoliyatining barqarorligi, aksiyadorlar va mijozlar ishonchini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

### Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda O'zbekiston ilmiy maktabida nomoddiy aktivlar (NA) bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar xalqaro standartlarga integratsiya, milliy buxgalteriya amaliyoti va auditorlik jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan. Xususan, Shirinov va Mustafoev (2023) ishida MHXS talablariga muvofiq nomoddiy aktivlarni tan olish mezonlari chuqur tahlil qilinib, ularning tasnifi va hisobda aks ettirish usullari milliy amaliyot bilan qiyoslangan. Mualliflar O'zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurligini asoslab, bu jarayon nafaqat hisobotlarning ishonchliligini, balki xorijiy investorlar ishonchini oshirishini ta'kidlaydilar. Shu yilning o'zida Shirinov (2023) tomonidan yozilgan "Nomoddiy aktivlar auditini takomillashtirish" nomli ishda esa auditorlik tekshiruvlarining maqsadi, bosqichlari va hujjatlashtirish talablari aniq tizimlashtirilgan. Tadqiqotda NA audit jarayonining ketma-ketligi, dalillar yig'ish usullari va xalqaro standartlarga asoslangan auditorlik dasturini yaratish masalalari yoritilgan. Bu yondashuv auditorlarning ish samaradorligini oshirish va aniqlik darajasini yuqorilashiga xizmat qiladi.

Namangan davlat universiteti tomonidan 2024-yilda chop etilgan "Audit" o'quv-uslubiy majmuasi ham NA bo'yicha amaliy qo'llanma sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Unda nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddatini aniqlash, amortizatsiya hisoblash metodlari va ularni hujjatlashtirish tartibi auditorlar uchun amaliy jihatdan yoritilgan. Mazkur qo'llanma o'zbek auditorlari uchun xalqaro tajribaga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Rossiya olimlarining ishlari ham NA audit bo'yicha xalqaro miqyosdagi ilmiy bazani boyitmoqda. Dalgatova (2019) agrar soha korxonalarida NAdan foydalanish samaradorligini audit qilish masalalarini tadqiq etib, baholashdagi subyektivlik va huquqiy hujjatlar to'liqligi auditori xulosasiga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy omillar ekanini ko'rsatadi. Bu xulosa qishloq xo'jaligi sektorida NA auditini takomillashtirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Maevskeya E.N. (2020) esa NAni tan olish, baholash va amortizatsiya siyosatini aniq belgilash orqali auditorlik xulosasining ishonchliligini oshirishni taklif qiladi. U, ayniqsa, ichki yaratilgan intellektual mulk obyektlarini hisobga olishdagi muammolarga e'tibor qaratadi, chunki bu aktivlar huquqiy jihatdan himoyalangan bo'lsa-da, ko'pincha moliyaviy hisobotlarda yetarlicha aks ettirilmaydi.

Yevropa olimlari ham nomoddiy aktivlar audit va hisobi bo'yicha qator empirik tadqiqotlar olib borishgan. Mazzi, Andre, Dionysiou va Tsalavoutas (2017) IFRS 3 va IAS 36 talablariga asosan goodwill va boshqa nomoddiy aktivlarga oid oshkorotlar sifatini baholashgan. Ularning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, past darajadagi oshkorot investorlar uchun axborotning foydaliligini sezilarli darajada kamaytiradi, bu esa bozor ishonchliligi va shaffoflikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijalar xalqaro moliyaviy hisobotlarda oshkorotlarni yanada mukammal qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Bagna va hammualliflar (2024) o'z tadqiqotida turli toifadagi nomoddiy aktivlar hajmining ortishi korxona moliyaviy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini empirik jihatdan asoslab bergan. Ular korxonalar intangiblesga investitsiyani oshirgan sayin, rentabellik va bozor qiymatining ortishini kuzatgan. Shuningdek, mualliflar riskga asoslangan audit yondashuvini qo'llash nomoddiy aktivlar audit sifatini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydi.

AQSh olimi Lev (2018) moliyaviy hisobotlarning investorlar uchun foydaliligi pasayishining asosiy omillaridan biri sifatida nomoddiy aktivlar hisobidagi kamchiliklarni ko'rsatadi. U intangibles bo'yicha amaldagi o'lchov va oshkorot mexanizmlarini tanqid qilib, ularni yanada aniqroq va standartlashtirilgan shaklga keltirish zarurligini asoslaydi. Levning fikricha, to'liq va sifatli oshkorot investor qarorlarining aniqroq bo'lishiga xizmat qiladi. Pham (2024) esa AQShdagi "Critical Audit Matters" (CAMs) doirasida goodwill va boshqa nomoddiy aktivlar haqidagi ma'lumotlarning investor qarorlariga ta'sirini o'rganadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, CAMs mavjud bo'lsa, investorlar ushbu aktivlar qiymatini ehtiyotkorlik bilan

baholaydi. Biroq, avvalgi yillardagi impairmentlar va batafsil izohlar bu ta'sir kuchini yumshatishi mumkin. Bu esa audit oshkorotlarining kontekst va tarixiy izohlar bilan boyitilishi muhimligini anglatadi.

Osiyo mintaqasida olib borilgan tadqiqotlar ham nomoddiy aktivlar auditini bo'yicha qimmatli xulosalar beradi. Prabhawa va hammualliflar (2021, Indoneziya) NA hajmi, risk-menejment qo'mitasi mavjudligi va auditorlik xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. Natijalar NA hajmi ortishi audit jarayonini murakkablashtirishi, shu sababli auditorlik xarajatlari oshishini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, audit byudjetini rejalashtirishda nomoddiy aktivlar miqdori va murakkabligini inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi. Hao va Wu (2022, Xitoy) esa brend kapitali va boshqa intangiblesga investitsiyalar yetarli bo'lmagan korxonalarda ishlab chiqarish unumdorligi pasayish tendensiyasini aniqlashgan. Ular nomoddiy aktivlar auditida bu aktivlarning aniq va shaffof o'lchov mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini, ayniqsa brend qiymatini baholashda obyektiv uslublarni qo'llash muhimligini qayd etishgan.

Umuman olganda, mazkur adabiyotlar nomoddiy aktivlar auditini va hisobini takomillashtirishda metodik, nazariy va amaliy jihatlarni qamrab oladi. O'zbekiston va Rossiya olimlarining ishlari milliy qonunchilik va standartlarga mos yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan bo'lsa, o'quv-uslubiy qo'llanmalar auditorlarning amaliy malakasini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va ilg'or uslublarni milliy amaliyotga tatbiq etish orqali NA auditining aniqligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqot metodologiyasi nomoddiy aktivlar auditini takomillashtirish bo'yicha ilmiy yondashuvni shakllantirish, nazariy asoslarni aniqlash va amaliy tahlillarni samarali tashkil etishga qaratilgan. Metodologiya birinchi bosqichi sifatida nazariy-uslubiy bazani aniqlash ko'zda tutiladi. Bu jarayonda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS 38, IFRS 3), O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi standartlari, auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi milliy qonun hujjatlari hamda ilg'or xorijiy tajribalar chuqur o'rganildi. Mazkur nazariy asoslar nomoddiy aktivlarning mohiyatini, tasnifini, tan olish mezonlarini va audit jarayonidagi o'ziga xos jihatlarni aniq belgilashga yordam beradi. Ikkinchi bosqichda tadqiqot ob'ekti va predmeti aniqlanadi. Tadqiqot ob'ekti sifatida tijorat banklari, xususan, Asakabank ATBning nomoddiy aktivlari auditini tanlandi. Predmet esa ushbu aktivlarning hisobda aks ettirilishi, baholanishi, amortizatsiya siyosati va auditorlik tekshiruvlarining sifat ko'rsatkichlari bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi. Bu bosqichda bankning ichki hisobotlari, audit dalolatnomalari, ochiq moliyaviy hisobotlari hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi.

Uchinchi bosqichda tahlil usullari belgilab olindi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, hujjatlarni ekspert baholash, amaliy kuzatuv va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil orqali milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi farqlar aniqlanadi, statistik tahlil yordamida esa Asakabankning 2020–2024-yillardagi nomoddiy aktivlari hajmi, tuzilishi va dinamikasi baholanadi. Ekspert baholash usuli orqali auditorlar va moliyaviy menejrlarning amaliy tajribalari tahlil qilinadi, kontent-tahlil esa hisobotlarda oshkorot darajasini o'rganishga xizmat qiladi.

To'rtinchi bosqichda natijalarni qayta ishlash va tavsiyalar ishlab chiqish amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar tizimlashtiriladi, ilmiy umumlashtirishlar qilinadi va nazariy xulosalar amaliy tavsiyalar bilan boyitiladi. Tavsiyalar nomoddiy aktivlarni baholash metodologiyasini standartlashtirish, raqamli texnologiyalar asosida audit jarayonini avtomatlashtirish, auditorlar malakasini oshirish hamda xalqaro standartlarni milliy amaliyotga chuqur integratsiya qilishga qaratiladi. Bu esa nafaqat

Asakabank ATB, balki boshqa tijorat banklari uchun ham audit sifatini sezilarli darajada oshiradi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan bank sektorida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, aktivlardan samarali foydalanish va ularni to'g'ri baholash muhim strategik vazifalardan biriga aylangan. Ayniqsa, nomoddiy aktivlar (dasturiy ta'minot, litsenziyalar, brend, intellektual mulk, mijozlar bazasi va h.k.) bugungi kunda banklar qiymatining muhim qismini tashkil etmoqda. Ushbu aktivlarni to'g'ri hisobga olish va audit qilish esa, ularning samaradorligini aniqlash hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Asakabank ATB misolida olib borilgan tahlil ushbu yo'nalishda muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi.

1-jadval

#### Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar (mlrd so'm)

| Yil  | Foizli daromadlar | Foizli xarajatlar | Sof foyda |
|------|-------------------|-------------------|-----------|
| 2020 | 1072.0            | 44.153            | 340.562   |
| 2021 | 3925.9            | 3106.1            | 100.4     |
| 2022 | 5274.3            | 4102.6            | 153.2     |
| 2023 | 6180.7            | 5120.9            | 208.1     |
| 2024 | 6950.1            | 5800.3            | 275.6     |

**Manba:** <https://www.asakabank.uz/ma'lumotlari/asosida/muallif/ishlanmasi>.

1-jadvalda aks ettirilganidek, Asakabank ATB 2020–2024-yillar davomida foizli daromadlarini sezilarli darajada oshirishga muvaffaq bo'lgan. 2020-yilda 1072 mlrd so'mni tashkil etgan foizli daromadlar 2024-yilga kelib 6950 mlrd so'mga yetgan. Bunda bankning kredit portfelini kengaytirishi, xizmat turlarini diversifikatsiya qilishi, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishi muhim omil bo'ldi. Shunga parallel ravishda foizli xarajatlar ham o'sdi, biroq ular daromadlarga nisbatan pastroq sur'atda o'sgan. Bu esa bank foydalilik ko'rsatkichlarining nisbatan barqarorligini ta'minladi.

Sof foyda esa 2020-yildagi 340,5 mlrd so'mdan 2024-yilda 275,6 mlrd so'mgacha biroz pasaygan bo'lishiga qaramay, bu jarayon foizli xarajatlar tarkibidagi o'zgarishlar, inflyatsion bosim va moliyalashtirish strategiyasidagi ehtiyotkorlik bilan izohlanadi. Bu yerda e'tiborga molik jihat — foyda o'zgarishlarining sababi ko'pincha nomoddiy aktivlarga yo'naltirilgan investitsiyalarning ko'payganligi bilan bog'liq bo'lishidir.

2-jadval

#### “Asakabank” ATBda nomoddiy aktivlarning yillik tarkibiy o'zgarishi (mlrd. so'mda)

| Yil  | Dasturiy ta'minot | Litsenziyalar | Brend qiymati | Boshqa aktivlar | Jami nomoddiy aktivlar | O'sish sur'ati (%) |
|------|-------------------|---------------|---------------|-----------------|------------------------|--------------------|
| 2020 | 6.5               | 2.0           | 2.1           | 1.8             | 12.4                   | —                  |
| 2021 | 9.7               | 3.2           | 3.0           | 2.8             | 18.7                   | 50.8               |
| 2022 | 12.4              | 4.1           | 4.2           | 3.8             | 24.5                   | 31.0               |
| 2023 | 15.8              | 5.0           | 5.3           | 5.1             | 31.2                   | 27.3               |
| 2024 | 19.7              | 5.9           | 6.2           | 7.1             | 38.9                   | 24.7               |

**Manba:** <https://www.asakabank.uz/ma'lumotlari/asosida/muallif/ishlanmasi>.

Jadvaldagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, “Asakabank” ATBda nomoddiy aktivlarning yillik hajmi izchil o'sishda davom etgan, bu esa bankning raqamlashtirishga, intellektual resurslarga va innovatsion texnologiyalarga e'tibor qaratayotganidan dalolat

beradi. 2020-yilda jami nomoddiy aktivlar 12,4 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 38,9 mlrd so'mga yetgan, ya'ni 4 yilda 3 baravar o'sish kuzatilgan. Ayniqsa 2021-yilda 50,8 foizlik o'sish sur'ati yuqori bo'lib, bu davrda katta miqdorda dasturiy ta'minot va litsenziyalar xarid qilinganligini ko'rsatadi. Nomoddiy aktivlar tarkibida eng yirik ulushni dasturiy ta'minot egallagan, bu raqam 2020-yildagi 6,5 mlrd so'mdan 2024-yilga kelib 19,7 mlrd so'mga yetgan. Bu bankning axborot tizimlari, internet-banking va mobil ilovalarni joriy etishga katta investitsiya kiritganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, brend qiymati va boshqa aktivlar (mijozlar bazasi, intellektual mulk va h.k.) ham izchil o'sib borgan, bu esa bankning mijozlar ishonchini oshirish va bozor mavqeini mustahkamlashga bo'lgan e'tiboridan dalolat beradi.

O'sish sur'atlari yildan-yilga pasayib borayotganini ko'rish mumkin: 2021-yilda 50,8 %, 2022-yilda 31 %, 2023-yilda 27,3 % va 2024-yilda 24,7 %. Bu holat dastlabki yillarda intensiv investitsiyalar kiritilgani, so'ngra esa barqaror rivojlanish bosqichiga o'tilganini anglatadi. Audit nuqtayi nazaridan esa, bu kabi o'sish bank uchun nomoddiy aktivlarning baholash uslublari, amortizatsiya siyosati va huquqiy mulk hujjatlarining aniqligini ta'minlashni talab etadi. Bank bu aktivlarni xalqaro audit standartlari asosida hisobga olishni yo'lga qo'yishi zarur.

Audit nuqtai nazaridan, ushbu o'sish muhim masalalarni yuzaga chiqaradi:

➤ baholash mezonlarining aniqligi – nomoddiy aktivlar moddiy shaklga ega emasligi sababli, ularning haqiqiy qiymatini aniqlash ancha murakkab.

➤ amortizatsiya siyosati – xizmat muddati noaniq bo'lgan aktivlar uchun qanday amortizatsiya usuli tanlanishi auditor uchun muhim savol bo'lib qoladi.

➤ yaratilgan yoki sotib olingan aktivlar o'rtaidagi tafovut – ichki ishlab chiqilgan dasturlar yoki jarayonlar ko'pincha baholashda e'tibordan chetda qoladi.

Shu sababli, bunday aktivlarni to'g'ri aniqlash, hujjatlashtirish, audit tekshiruvlarida risklarni baholash va xalqaro standartlarga (xususan, IAS 38 va ISA 540) muvofiq yondashuvlar qo'llanilishi zarur. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank faoliyatining raqamlashtirilishi faqat texnologik yutuqlar emas, balki audit jarayonlarining ham modernizatsiyasini talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, nomoddiy aktivlar hajmi va ularning sifatli hisobga olinishi bankning umumiy moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, ularning yildan-yilga ortib borishi bank ichki boshqaruvi va audit nazorat tizimida bu aktivlar bilan ishlash bo'yicha maxsus metodikani ishlab chiqishni taqozo etadi. Shunday ekan, bu sohadagi auditorlik yondashuvlarini takomillashtirish bank barqarorligining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Birinci navbatda shuni ta'kidlash joizki, Asakabank ATBda 2020–2024-yillar davomida nomoddiy aktivlar hajmi sezilarli darajada o'sdi. Bu o'sish, bir tomondan, bankning raqamlashtirish va intellektual resurslarga bo'lgan e'tiborining kuchayganini ko'rsatsa, boshqa tomondan esa audit faoliyati uchun yangi mas'uliyatlarni yuklaydi. Nomoddiy aktivlar hajmining yildan-yilga o'sishi (masalan, 2021-yilda 50,8%, 2024-yilda esa 24,7%) auditorlardan nafaqat tasdiqlovchi dalillarni, balki ularni baholashda ilg'or metodlarni qo'llashni talab qiladi. Ushbu o'sish tendensiyasi, ayniqsa bankning texnologik infratuzilmasi, dasturiy ta'minot va litsenziyalarga qaratgan sarmoyalari bilan bog'liq bo'lib, audit jarayonida ushbu obyektlarning yuridik maqomi va iqtisodiy manfaatdorligi puxta tahlil qilinishi kerak.

Xalqaro va milliy audit standartlari asosida olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, nomoddiy aktivlar ko'pincha hisobda kam baholanadi yoki noto'g'ri tasniflanadi. Asakabank misolida ham bu aktivlar bo'yicha hujjatlashtirish va identifikatsiya qilishdagi kamchiliklar kuzatilgan bo'lishi mumkin. Xususan, intellektual mulk obyektlari, ichki ishlab chiqilgan dasturlar va mijozlar bazasiga doir aktivlar, ko'pincha aniq qiymatda baholanishi qiyin bo'ladi. Bu holatda auditorlardan innovatsion yondashuvlar – masalan, bozordagi o'xshash aktivlar asosida solishtirma baholash yoki foyda keltiruvchi yondashuvni qo'llash

talab etiladi. Shu sababli, nafaqat moliyaviy hisobotlarda, balki audit jarayonlarida ham nomoddiy aktivlarning mazmunini chuqur anglash lozim.

O'tkazilgan tahlillardan ma'lum bo'lishicha, nomoddiy aktivlar hajmining o'sishi bevosita bankning sof foydasi bilan mutanosib bo'lmayapti. Jadvallardan ko'rinib turibdiki, 2021–2024 yillarda nomoddiy aktivlar hajmi 2 baravarga yaqin o'sgan bo'lsa-da, sof foyda nisbatan pastroq sur'atlarda ko'tarilgan. Bu esa shuni anglatadiki, ba'zi aktivlar iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan qayta baholanishi lozim. Shuningdek, aktivlarning xizmat muddati, eskirish darajasi va bozordagi qiymatini aniqlashtirish orqali audit xulosalari yanada aniq va ishonchli bo'ladi. Ushbu holat bankda strategik aktivlarni identifikatsiya qilish va ularni moliyaviy modelga to'g'ri integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Mavjud tahlillar asosida Asakabank ATBda nomoddiy aktivlar auditini takomillashtirish uchun bir necha takliflar ilgari surilishi mumkin. Birinchidan, audit dasturlariga xalqaro standartlarga mos ravishda "intangibles due diligence" modullarini joriy etish zarur. Ikkinchidan, auditorlar uchun ichki o'quv treninglari va amaliy mashg'ulotlar tashkil qilish orqali baholash va hujjatlashtirish malakasini oshirish kerak. Uchinchidan, audit kompaniyalari o'z faoliyatida yangi texnologiyalar – masalan, intellektual aktivlar monitoringi, avtomatik hujjat identifikatsiyasi va aktivlar hayot aylanishi (life cycle) modellari asosida tekshiruv usullarini keng joriy etishlari kerak. Shunday yondashuvlardangina so'ng nomoddiy aktivlar bank faoliyatida nafaqat raqam, balki strategik resurs sifatida o'z aksini topa oladi.

### Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Asakabank ATBda so'ngi yillar davomida nomoddiy aktivlar hajmi sezilarli darajada oshgan. Bu esa bankning intellektual infratuzilmasini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu aktivlarni moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirish, baholash, amortizatsiyalash va hujjatlashtirishda amaliy va metodik muammolar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, auditorlar uchun aktivlarning iqtisodiy mazmunini aniqlash va ularni samarali tekshirish dolzarb masalaga aylangan. Shunday xulosaga kelish mumkinki, nomoddiy aktivlar audit samaradorligini oshirish uchun xalqaro audit standartlari va ilg'or amaliyotlar asosida yangi yondashuvlarni joriy etish zarur. Bu jarayonda riskga asoslangan audit modeli, intellektual mulkni aniqlash algoritmlari va avtomatlashtirilgan baholash tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Asakabank ATB misolida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, nomoddiy aktivlarni chuqur tahlil qilish va ularni strategik aktiv sifatida boshqarish bankning moliyaviy shaffofligi va investitsion jozibadorligiga bevosita ta'sir qiladi.

### Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Anderson, J. (2023) *AI and Automation in Intangible Asset Auditing*. Harvard Business School Working Paper Series, No. 24-103.

Bagna, E., Dell'Acqua, A. and Frigo, M.L. (2024) 'The Impact of Intangible Asset Growth on Financial Transparency: A European Bank Study', *European Accounting Review*, 33(1), pp.47–68.

Hao, J.X. and Wu, H.X. (2022) 'Audit Challenges of Intangible Assets in Chinese Listed Companies', *China Accounting and Finance Review*, 24(4), pp.95–112.

IFRS Foundation (2023) *IAS 38 – Intangible Assets*. London: International Accounting Standards Board.

IFRS Foundation (2023) *IFRS 3 – Business Combinations*. London: International Accounting Standards Board.

International Auditing and Assurance Standards Board (2022) *ISA 540 (Revised) – Auditing Accounting Estimates and Related Disclosures*. New York: IFAC.

Lev, B. (2018) *The End of Accounting and the Path Forward for Investors and Managers*. Hoboken: Wiley Finance.

Mazzi, C., Andre, P., Dionysiou, D. and Tsalavoutas, I. (2017) 'Compliance with IFRS 3 and IAS 36 disclosure requirements: Value relevance and audit implications', *Accounting Forum*, 41(3), pp.221–239.

Namangan Davlat Universiteti (2024) *Audit fanidan o'quv-uslubiy majmua*. Namangan: NamDU Nashriyoti.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2022) *Buxgalteriya hisobi milliy standarti №10 – Nomoddiy aktivlar*. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2024) *Nomoddiy aktivlar buxgalteriya hisobi va auditiga oid metodik ko'rsatmalar*. Toshkent: Moliyaviy tahlil markazi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (2021) *Audit to'g'risidagi Qonun (O'RQ-704-son, 4-iyun)*.

Pham, L. (2024) 'Critical Audit Matters and Investor Decision-Making: Evidence from Intangible Asset Disclosures', *Journal of Accounting Research*, 62(1), pp.88–115.

Prabhawa, A.A., Sutrisno, T. and Nasih, M. (2021) 'The Role of Audit Complexity in Intangible Assets: Evidence from Indonesian Firms', *Asian Journal of Accounting Research*, 6(2), pp.210–227.

Shirinov, U.A. (2023) *Nomoddiy aktivlar auditini takomillashtirish: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Ilm Ziya Nashriyoti.

Shirinov, U.A. and Mustafoev, A.F. (2023) *Nomoddiy aktivlarni xalqaro va milliy yondashuvlar asosida hisobga olish va taqqoslash*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

Далгатова, А.Н. (2019) *Аудит нематериальных активов в АПК России: методология и практика*. Москва: ФинЭк.

Интербух / Фин-издат (2023) *Аудит нематериальных активов: типичные ошибки и способы их устранения*. Москва: Финансовый издатель.

Маевская, Е.Н. (2020) *Учет и аудит нематериальных активов: проблемы и перспективы*. Москва: ЮНИТИ-ДАНА.